

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARDAN FOYDALANISH

Mamaraximova Azizaxon

Qo'qon universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada an'anaviy o'qitish usullari ko'pincha yosh o'quvchilarning e'tiborini va qiziqishini jalb qila olmaydi, bu esa o'quvchilarda zerikish va motivatsiyaning yetishmasligiga olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun interaktiv, amaliy va shaxsiylashtirilgan zamonaviy o'qitish yondashuvlarini qo'llash tavsiya etiladi. Pedagogik faoliyatda ta'lim metodlaridan va innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, bu jarayonda, fanlar o'rtasidagi integratsiya holati, innovatsion metodlarni yaratishda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari keltirilgan. Shuningdek, maqolada, "Kamalak jilosi", "Krossword" va "Evrika" metodlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, o'qitish usullari, ta'limda texnologiya, interaktiv ta'lim, raqamli savodxonlik, o'rganish ilovalari, ta'lim, innovatsiya, o'qitish, zamonaviy, metod.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится, что традиционные методы обучения часто не могут привлечь внимание и интерес молодых учащихся, что приводит к скуке и отсутствию мотивации у учащихся. Для решения этой проблемы рекомендуется использовать интерактивные, практичные и персонализированные современные подходы к обучению. В этом процессе представлены эффективные аспекты использования образовательных методов и инновационных методов в педагогической деятельности, состояние интеграции между дисциплинами, возможности информационно-коммуникационных технологий в создании инновационных методов. В статье также рекомендуются методы "Радужная полировка", "Кроссворд" и "Эврика".

Ключевые слова: Начальное образование, методы обучения, технологии в образовании, интерактивное образование, цифровая грамотность, обучающие приложения, образование, инновации, обучение, современный, метод.

ABSTRACT

The article states that traditional teaching methods often fail to capture the attention and interest of young learners, leading to boredom and lack of motivation among learners. To solve this problem, it is recommended to use interactive, practical and personalized modern teaching approaches. The effective aspects of using educational methods and innovative methods in pedagogical activities, the state of integration between disciplines, the possibilities of information communication technologies in the creation of innovative methods are presented in this process. The article also recommends "Rainbow polish", "Crossword" and "Eureka" methods.

Keywords: Primary education, teaching methods, technology in education, interactive education, digital literacy, learning applications, education, innovation, teaching, modern, method.

Bugungi kun o'qituvchisidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: "Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik" - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Metod - eng umumiy ma'noda - maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir. Metodlarning asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Metod boshqa shakllarda namoyon

bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi. Didaktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari — ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchunchi guruh metodlariga o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi. Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlarini quyidagi ko'rinishda ifodalasak bo'ladi.

Ta'lim metodlari tarkiban o'qish metodlari va o'qitish metodlaridan iborat. O'qituvchi bilimlarni og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi. O'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qish metodlari majmuasidan foydalaniladi.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning

umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi. Didaktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi. Ta'lim usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi- talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir- biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshirishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan. U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: -ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik; -bilim berishda bir xil narsani yoki fanni o'rgatavermaslik shart, bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri; -uzviylik va izchillik; -taxlil qilish va taqqoslash; -takrorlash; -materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar. Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U o'quvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'yimaslik kerak, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarining mazmun-mohiyati o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos keladi va unda turli xil metodlardan foydalanib o'quvchi yoshlarni fanga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalansa ham og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli usuldagi suhbatlarni tashkil etish bilan bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini va og'zaki bayon qilish qobiliyatini rivojlanishini ta'minlash maqsad bo'lgan.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Ona tili va o'qish darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O'qituvchi va

o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi. CHARXPALAK" usuli. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Darxaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoning unumdorligini oshiribgina qolmay o'quvchilarning mustaqil firlash malakasini oshiradi. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylandi. Ma'lumki bugungi kunda dars jarayonida "Krassword", "Muzyorar", "Sinkveyn", "Keys stady", "Insert", "BBB", "Ven diagrammasi", "Aqliy hujum", va "Zig-zag" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayoning samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya etamiz.

Darxaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoning unumdorligini oshiribgina qolmay o'quvchilarning mustaqil firlash malakasini oshiradi. "Kamalak jilosi" - metodini pedagogik faoliyatimizda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod ona tili, matematika, va o'qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darsida so'zlarni turkumlarga ajratishda: ayiq, mashina gapirdi, yig'ladi, sariq, qora, katta, kichik, to'qqiz, bir kabi so'zlarni turkumlarga ajratish ot so'z turkimiga oid so'zlarni ko'k rangli chiziqqa olish, sifat so'z turkimig oid so'zlarni havorang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo'llash mumkin. Ya'ni kamalakning birinchi chizig'ini 1 xonali son deb oladigan bo'lsak ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bola oladi. "Krossword" metodi avvaldan qo'llanilib kelinayotgan metodlardandir, uni har bir sinfnig har bir darsida uchratishimiz mumkin. Krasswordlarni tayyorlashda, asosan, axborat kommunikatsiya texnologiya vositasi bo'lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Innovatsion krasswordlarda barcha jabxalarda foydalanish mumkin. Microsoft Excell dasturida tayyorlangan kraswordni bajarishdan oldin o'quvchilarni krassword bajarishiga undovchi gaplarni aytishimiz va bu orqali qiziqishini yanada oshirish shart.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qilish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-fevraldagi 66-son qarori
3. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim). - Toshkent, 2017
5. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
6. Саматов, С. М., & Сайдуллаев, А. (2020). О некоторых свойствах собственного значения двухчастичного дискретного оператора Шредингера. In *Modern stochastic models and problems of actuarial mathematics* (pp. 114-115).
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
8. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 28(2), 29.

9. Bromwich D. (2015). Trapped in the Virtual Classroom. The New York Review of Books.
10. Глазьев С.Ю. (2016). Экономика будущего. Есть ли у России шанс? / С.Ю.Глазьев. - М.: Книжный мир.
11. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA’LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583..
12. Майхнер Х.Е. (2002). Корпоративные тренинги / Х.Е. Майхнер. - М.: ЮНИТИ.
13. Jumanova, S. B. (2022). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHISINING ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI MILLIY QADRIYATLARIMIZNI O‘RGANISHNING SAMARALI OMILLARI. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.